

**BUYUK SOHIBQIRON AMIR TEMUR MAVZUSI KOMPOZITORLAR
NIGOHIDA.**

*Farg‘ona viloyati Madaniyat Boshqarmasi tasarrufidagi
Beshariq tumani 18 sonli Bolalar musiqa va san’at
maktabi musiqa nazariyasi o‘qituvchisi
Ahmedova Gulbaxor Azimjonovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur kompozitor Antonio Vivaldining buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur va uning kuchli harbiy salohiyati tasvirlangan “Tamerlan” operasi haqida gap boradi. Operaning yaratilishi, o’sha davr haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kompozitor, opera, barokko, virtuozi, oratoriya, libretto, kompozitsiya, pastichcho, partitura.

Ma’lumki buyuk sarkarda Amir Temur O‘rta Osiyoda o‘zining ulkan saltanatiga asos solgan bir paytda, usmonli turklar sultonni, o‘z zamonining yirik hukmdori Boyazid Yildirim o‘z saltanatini kengaytirayotgan edi. XIV asr oxiriga kelib, sulton Boyazud Yildirim Bolqonbo‘yi va Kichik Osiyoning ulkan hududlarini egallab oldi. Bu ikki sarkarda qardosh millat va yagona din vakillari edi. Buyuk ikki hukmdorlar qo‘sishlari 1402 yilning iyun oyida to‘qnash keldi. Murosasiz va shafqatsiz kechgan jang usmonli turklarning mag‘lubiyyati bilan yakunlandi. Usmonli turklar davlati to‘liq Amir Temur ixtiyoriga o‘tdi. Boyazid qo‘sining uchdan ikki qismi jang maydonida yo‘q qilindi. Sohibqiron esa qo‘sining sakkizdan bir qismini yo‘qotdi. Amir Temur Boyazid bilan jang qilguniga qadar unga bir necha bor xat yozgani va javob olgani ma’lum. Temur har bir xatida usmonlilar sultonining fikr-mulohaza bilan siyosat yuritishga, har ikki hukmdorlar bir din, qardosh millat vakili ekanliklarini, ikki davlat o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnatalishi zarurligini ta’kidlagan. Dastlab Temur fikrlariga xayrixoh fikrlar bildirgan sulton Boyazid so‘nggi xatlarida Temurga qarshi qo‘pol va nafsoniyatga tegadigan mazmundagi javoblar yo‘llaydi. Ayniqsa sulton Boyazidni Temur tobesi Qora Yusufjon boshqarayotgan Erzinjon hududiga bostirib kirishi, Temurning uzr so‘rashni talab etib yuborgan elchisidan haqoratli javob yo‘llashi Temurni nihoyatda gazablantirdi, diplomatik aloqalarga chek qo‘ydi. Jang natijasiga ko‘ra, Yevropa mamlakatlari kuchayib borayotgan usmonli turklar tahdididan qutulib, o‘zlarini o‘ngab olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Barokko davrida o‘zining sermahsul ijodi bilan mashhur bo‘lgan Antonio Vivaldi Venetsiyalik kompozitor, virtuozi skripkachi, dirijor, o‘qituvchi edi. Hayoti davomida nafaqat Italiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham mashhur bo‘ldi. U yakkaxon cholg‘u konsert janrini yaratdi va virtuozi skripka texnikasining

rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Umri davomida besh kun ichida uch pardali opera yaratishga, bir mavzuda ko'plab variatsiyalar yaratishga qodir bastakor sifatida tanildi. Antonio Vivaldi ijodi nemis musiqachilariga ham katta ta'sir ko'rsatgan. A. Kasellaning (1883-1947 Italiyalik bastakor, dirijor, pianinochi, musiqashunos) ta'kidlashicha buyuk nemis kompozitori Logan Sebastyan Bax uning eng katta muhlisi bo'lgan. Kompozitor oratoriyalar, cholg'u va kamer asarlar yaratgan. 90 dan oshiq operalar yozgan. U hayoti davomida o'z musiqasi orqali tarixiy shaxslarni tasvirlashga kirishdi. Ana shunday siymolardan biri tarixda o'chmas iz qoldirgan Markaziy Osiyo davlat arbobi, sarkarda Amir Temurdir. "Bayazet" nomi bilan ham tanilgan "Tamerlan" operasining prem'yerasi Verona filarmoniya teatrida 1735 yilda bo'lib o'tadi. Siyosat, romantika va o'limn, imperiyalar to'qnashuvi mazmunini o'z ichiga olgan bu klassik asar barokko operasi janrining yorqin namunasidir. Agostino Piovene opera librettosini tarixiy manbalardan foydalangan holda Temurlan nomi bilan tanilgan va uning Usmonlilar imperiyasiga qarshi muvaffaqiyatli harbiy yurushi haqida yozgan.

Dastlabki tahlillar shuni ko'rsatadiki, Vivaldining Amir Temur tasvirlangan kompozitsiyalarida ko'pincha mahobatli orkestr, ta'sirchan, harbiy bosqinlarni eslatuvchi dramatik ohanglar bor. Vivaldi g'alaba qozongan guruh fanfarları va pulsatsiyalanuvchi ritmlar kabi takrorlanuvchi motivlar orqali Temur sultanati bilan bog'liq ulug'verlik va qudratni qamrab oladi. Qolaversa, garmonik progressiya va cholg'u asboblaridagi nozik nuanslar Temur sultanating madaniy xilma-xilligini o'zida aks ettirib, O'rta Osiyo, Fors va Yevropa musiqa an'analari elementlarini o'zida aks ettiradi. Mashhur italyan bastakori yetarlicha esda qolarli ariya va ansambllarga ega bo'lgan to'liq opera yaratish uchun boshqa asarlardan va boshqa kompozitorlar musiqasidan parchalar, shuningdek avvalgi asarlarida o'rin topa olmagan parchalarni oldi, ta'sirchan kuy-qo'shiqlardan tashqari, "Tamerlan" operasida kengaytirilgan muqaddima vazifasini o'taydigan va operaning ba'zi markaziy motivlari bilan tanishtiruvchi uch qismli simfoniya ham mavjud. Opera partiturasida Vivaldining pastichcho(italyancha pasticcio, fransuzcha, inglizcha pastiche-opera, boshqa operalar parchalaridan tuzilgan, aralashma) texnikasidan foydalangani yaqqol sezilib turadi. Xulosa qilib aytganda, Vivaldining Amir Temur tasvirlangan musiqiy asari ham tarixiy shaxs, ham u yashagan davr haqida jozibali tasavvur beradi. Mavjud ilmiy tadqiqotlardan olingan fikrlar va Antonio Vivaldi kompozitsiyalarini chuqur tahlil qilish orqali "Tamerlan" operasi bizga o'sha davr tarixi va madaniyati haqida ma'lumot beradi, chuqurroq tushunishga undaydi.

Adabiyotlar :

- Барбье П. Венеция Вивальди: Музыка и праздники эпохи барокко = La Venise de Vivaldi: Musique et fêtes baroques. — СПб.: Издательство Ивана Лимбаха, 2009. — С. 280. — ISBN 978-5-89059-140-1.

2. Вирджилио Боккарди. Вивальди. — Жизнь замечательных людей
3. (Том 1085). — М.: Молодая гвардия, 2007. — С. 272. — ISBN 978-5-235-03014-5.
4. <https://m.aniq.uz/yangiliklar/amir-temur-va-yildirim-boyazid-urtasidagi-tarixiy-yozishmalar>. <https://daryo.uz/k/2021/07/20/>
5. sohibqiron-amir-temur-faoliyatidagi-eng-yorqin-galaba-ikki-buyuk-turkiylar-davlati-toqnashgan-anqara-jangi
6. <https://muzicaviva.livejournal.com/836.html>